

**«AGAT CREDIT» AJ MMT AKSIYADORLARINING NAVBATDAN TASHQARI UMUMIY YIG‘ILISHINI O‘TKAZISH
TO‘G‘RISIDA
XABARNOMA**

«AGAT CREDIT» AJ MMT 2026 yil 10 iyun kuni jamiyat aksiyadorlarining navbatdan tashqari Umumiy yig‘ilishi o‘tkazilishi haqida ma’lum qiladi.

KUN TARTIBI:

1. «AGAT CREDIT» AJ MMT mikromoliya tashkiloti faoliyatini mikromoliya banki faoliyatiga o‘zgartirish yo‘li bilan mikromoliya bankini tashkil etish.
2. Mikromoliya bankning firma nomini tasdiqlash.
3. «AGAT CREDIT Mikromoliya banki» AJ Ustavini tasdiqlash.
4. «AGAT CREDIT Mikromoliya banki» AJning ichki korporativ hujjatlarini tasdiqlash.
5. «AGAT CREDIT Mikromoliya banki» AJning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash.
6. «AGAT CREDIT Mikromoliya banki» AJning uch yilga mo‘ljallangan biznes-rejasini tasdiqlash.
7. «AGAT CREDIT Mikromoliya banki» AJ Kuzatuv kengashi a‘zolarini saylash.
8. «AGAT CREDIT Mikromoliya banki» AJ Boshqaruvi a‘zolarini saylash.
9. «AGAT CREDIT Mikromoliyaviy banki» AJni tashkil etish uchun dastlabki ruxsatnoma olish.
10. 2025 yil 10 oktyabr va 2025 yil 30 dekabrda aksiyadorlar umumiy yig‘ilishlarining ayrim qarorlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish.

Jamiyatning joylashgan manzili (pochta manzili): O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Alpomish SGM, Buyuk Ipak yo‘li ko‘chasi, 127-A uy. Pochta indeksi: 100077.

Jamiyatning elektron manzili: info@agatcredit.uz

Yig‘ilish o‘tkaziladigan joy: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Alpomish SGM, Buyuk Ipak yo‘li ko‘chasi, 127-A uy.

Aksiyadorlarni ro‘yxatdan o‘tkazish: yig‘ilish o‘tkaziladigan kuni va joyida soat 14:00 dan 15:00 gacha.

Yig‘ilish boshlanish vaqti: soat 15:00.

Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida ishtirok etish va ovoz berish tartibi:

Aksiyador Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida shaxsan yoki o‘z vakili orqali ishtirok etish huquqiga ega.

Aksiyador istalgan vaqtda umumiy yig‘ilishdagi o‘z vakilini almashtirish yoki yig‘ilishda shaxsan ishtirok etish huquqiga ega.

Aksiyadorning Umumiy yig‘ilishdagi vakili notarial tasdiqlangan ishonchnoma asosida harakat qiladi. Ovoz berish uchun berilgan ishonchnomada vakolat beruvchi va vakil to‘g‘risidagi ma’lumotlar (ismi yoki nomi, yashash joyi yoki joylashgan manzili, pasport ma’lumotlari yoki ID-karta ma’lumotlari) ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak.

Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida ovoz berish «jamiyatning bir dona ovoz beruvchi aksiyasi — bir ovoz» prinsipi asosida amalga oshiriladi.

Kun tartibidagi masalalar bo‘yicha ovoz berish ovoz berish byulletenlari orqali amalga oshiriladi.

Qo‘shimcha ma’lumot:

Aksiyadorlarni umumiy yig‘ilish haqida xabardor qilish uchun aksiyadorlar reyestri 2026 yil 15 may holatiga shakllantiriladi.

Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishda ishtirok etishi uchun aksiyadorlar reyestri 2026 yil 4 iyun holatiga shakllantiriladi.

Aksiyadorlar yig‘ilish materiallari bilan ish kunlari soat 10:00 dan 16:00 gacha quyidagi manzilda tanishishlari mumkin: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Alpomish SGM, Buyuk Ipak yo‘li ko‘chasi, 127-A uy. Ma’lumot uchun telefon: (90) 982-44-48.